

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI RUS-TILI FANINI FAOL
O‘ZLASHTIRISHDA JISMONIY TARBIYA DAQIQALARINING
AHAMIYATI**

Namangan davlat universiteti:

Yuldashov Ilhomjon Shavkat o‘g‘li

Mahmudjonova Mohinbonu Toxirjon qizi

e-mail: *ilhomjonyo‘ldashev@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ularga o‘qitiladigan rus tili fanini o‘zlashtirish jarayonini susayishini oldini olishi uchun jismoniy tarbiya daqiqalarining ahamiyati haqida nazariy ma’lumot hamda amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Dars mashg‘uloti, diqqat konsentratsasi, aqliy mehnat, jismoniy mehnat, jismoniy tarbiya daqiqalari.

**ЗНАЧЕНИЕ МИНУТ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В АКТИВНОМ
ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА МЛАДШИМИ ШКОЛЬНИКАМИ**

Аннотация: В данной статье приведены теоретические сведения и практические рекомендации о значении минуток физкультуры для учащихся начальных классов и важности минуток физкультуры для предотвращения замедления ими процесса овладения преподаваемым им русским языком.

Ключевые слова: Уроки, концентрация, умственная работа, физическая работа, протоколы физкультуры.

**THE IMPORTANCE OF MINUTES OF PHYSICAL EDUCATION IN THE
ACTIVE LEARNING OF RUSSIAN LANGUAGE BY PRIMARY SCHOOL**

Abstract: This article provides theoretical information and practical recommendations on the importance of physical education minutes to prevent the decline of the process of mastering the Russian language taught to primary school students and their secondary school.

Key words: Lessons, concentration, mental work, physical work, minutes of physical education.

Mavzuning dolzarbligi: Umumta’lim maktablarida darsning samarasi ko‘pincha o‘qituvchining tuzgan rejasini hayotiyliigi, shug‘ullanuvchilar faoliyatini tashkillash uchun tanlagan usuliyati va uslublari mavjud jihozlar va anjomlaridan, texnik vositalardan, effektli foydalana olish, temperatura, iqlim sharoiti, o‘quvchilarning tayyorgarligi, ularning yoshi, individual xususiyatlarini hisobga olib effektli foydalana olish bilan bog‘liq. Albatta bularni barchasidan oqilona foydalanish yaxshi ammo kichik sinf o‘quvchilarning harakatga bo‘lgan extiyojining yuqorilini hisobga olsak bu extiyojni tanafus va katta tanafuslarda qondirish mumkin deb hisoblash biroz noto‘g‘ri bo‘ladi chunki, maktabdagi ko‘plab fanlar nazariy va hotira bilan bog‘liq. Mazkur fanlar qatorida rus tili fani ham juda murakkab fan bo‘lib uni o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida *jismoniy tarbiya daqiqalarini* jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi bo‘lmagan ustozlar ham bilishi dolzarb masala deb qaramoqdamiz.

Ishning maqsadi: Jismoniy tarbiya daqidalarining umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘tiladigan rus tili fanini samaradorligiga aniqlash.

Ishning vazifalari: 1. Dars mashg‘ulotlarini uyushtirilishda etibor berish zarur jihatlarni o‘rganish.

2. jismoniy tarbiya daqiqalarining aqliy va jismoniy mehnatni effektini ortishiga tasiri aniqlash.

Darsning uyushtirilishining terminlanishi quyidagilar:

1) tibbiy va gigiena sharoitini yaratish va unga rioya qilishni; 2) moddiy texnik jihatdan ta’minlashni; 3) darsda o‘quvchilar faoliyatini tashkillash usuliyatlarini to‘g‘ri tanlash orqali qo‘yilgan vazifani effektli hal qilishni nazarda tutadi.

Dars o‘tkazishda qator umumiy talablarni bajarish kerak bo‘ladi. **Birinchiidan:** o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash butun dars davomida – birinchi minutdan to oxirgi minutgacha amalga oshirib borilishi kerak. O‘qitish vazifalarini faqat darsning asosiy qismida hal etishdek, amalda uchrab turadigan tendentsiyani to‘g‘ri deb hisoblab bo‘lmaydi. Darsning tayyorgarlik va yakuniy qismlarini o‘quv nagruzkasisiz o‘tkazgan o‘qituvchi vaqtni befoyda o‘tkazadigan faqat o‘rgatuvchi bo‘lib qoladi. **Ikkinchiidan:** dars o‘tkazishda har qanday yo‘llar bilan bo‘lsa ham metodik shablonlardan qochish kerak. Darslarning mazmuni va metodikasini xilma-xil qilish kerakligini vazifalarning doimiy ravishda murakkablashib borishi, shug‘ullanuvchilarning organizmi, aqliy va psixikasida sodir bo‘ladigan siljishlar dinamikasi, tashqi sharoitning o‘zgaruvchanligi taqozo etadi. **Uchinchiidan:** shug‘ullanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni bir tekisda o‘quv faoliyatiga jalb etish kerak. Faqat shu yo‘l bilan barcha o‘quvchilar uchun uzoq vaqt davomida bir butun o‘quv-tarbiya protsessiga erishish mumkin va o‘quvchilarning o‘qishini tashlab ketishlarining yohud qoloqlar paydo bo‘lishining oldi olinadi. **To‘rtinchiidan:** har bir mashg‘ulotdagi o‘quv faoliyatini umumiy metodik printsiplarga va jismoniy tarbiyaning umumiy printsiplariga qat’iy rioya qilgan holda olib borish kerak. Shundagina o‘quvchilar doimiy ravishta tartib va intizomga o‘rganib asosiysi holsizlikdan ozod bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya daqiqalarining o‘ziga xosligi va qo‘llanilishi.

Biz ushu kichik mashq bilan amalga oshiriladigan jarayonni rus tili fani bilan bog‘liq holatda amalga oshirishda Namangan viloyatining Norin tumanidagi 1-sonli Ixtisoslashgan maktabning 2- sinf o‘quvchilari tadqiqot obe’kti bo‘lib xizmat qildi. Mazkur jarayon 6 oy davomida amalga oshirishdi va o‘quvchilar bilan olib borilgan musiqa va turli sher bilan bajarilgan jismoniy tarbiya daqiqalari biz kutgan natijalarni berdi. Bunda 1- bolalar darsga qiziqishlarini kuchli bo‘lib qatnashuvi, 2- o‘quvchi diqqatining jamlanishi yuqoriligi,3- o‘quvchi hotirasining mustaxkamligi va sog‘ligining mustaxkamligi kabi yutuqlarga erishilganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa

Har qanday insonning ham harakatga bo‘lgan extiyoji mavjud bo‘lib, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning harakatga bo‘lgan extiyoji juda ham yuqori bo‘lishi hech kimga sir emas. Hozigi kunda yosh avlodni til o‘rganishi eng global masala darajasiga yetgan. Rus tili fani ham albatta chet tillari ichida o‘ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur fanni o‘qitishni boshlangich sinfdan puxta tashkil etish esa eng oqilona yo‘l hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
2. A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b.
3. R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va metodikasi. Darslik –Toshkent 2014-yil 284 b.
4. F.A.Kerimov “ Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar”. Toshkent. “Zar qalam” - 2004.-447.b.
5. R.Abdumalikov ,T.T. Yunusov. va boshqalar. «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya ta’limining rivojlanishi», metodik tavsiyanoma. T., O‘zDJTI nash, 1992.
6. Ш.Отабоев, Э.Сатторов, М.Мелиева. Экогигиена, жимоний тарбия, спорт ва саломатликнинг тиббий-психологик асослари. Методик кулланма-Тошкент “Nishon Noshir”нашрети 2009-йил 360 б.
7. Ф .Насриддинов. Камолот ва маънавият сабоқлари. – Т. : Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр. , 1998, -223 б